**UO‘K 94 (575.1)**

# “KATTA TERROR” QURBONI G‘OFUR QOSIMOV FAOLIYATIGA DOIR

**O‘.Q. Ubaydullayev**

*Maqolada “Milliy ittihod” tashkilotining Namangan bo‘limi faol a’zosi, taraqqiyparvar G‘ofur Qosimovning hayoti, mehnat faoliyati va taqdiri birlamchi arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Uning sovet hukumati tizimida turli lavozimlarda ishlab, irrigatsiya tizimi, agrar soha, ayniqsa, pillachilikni rivojlantirishdagi faoliyati hamda milliy manfaatlarni himoya qilishdagi jasorati tahlil etilgan. Shuningdek, uning qatag‘on qilinishi voqealari va farzandlarining otasi taqdiriga oid ma’lumotlarni aniqlashtirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari arxiv hujjatlari asosida ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *jadidchilik, “Milliy birlik”, “Milliy ittihod”, G‘ofur Qosimov, bolsheviklar partiyasi, kolonializm, “mahbus”, “tergovchi”, qatag‘on.*

*В статье на основе первичных архивных документов освещаются жизнь, трудовая деятельность и судьба Гафура Касымова — активного члена Наманганского отделения организации «Миллий иттиҳод» («Национальный союз»), представителя прогрессивной интеллигенции. Анализируется его деятельность на различных должностях в системе советской власти, вклад в развитие ирригационной системы, аграрной сферы, особенно шелководства, а также проявленное мужество в защите национальных интересов. Кроме того, раскрывается история его репрессирования и дальнейшая судьба на основе заявлений его детей, направленных в соответствующие органы с целью узнать о судьбе отца.*

**Ключевые слова**: *«джадидизм», «Национальный союз», “Миллий Иттиход”, Гафур Касимов, большевистская партия, национальная независимость, колониализм, обвинитель, обвиняемый, репрессии.*

## KIRISH

Ma’lumki, “2025–2026-yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” [1] tasdiqlandi. Dasturda arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarni o‘rganish asnosida nohaqlik qurboni bo‘lgan, nomlari jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan minglab vatandoshlarimiz faoliyati va taqdirini o‘rganish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish ustuvor vazifalardan biri qilib belgilandi. Mazkur maqolada sovet tuzumining qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan, “Milliy Ittihod” tashkilotining Namangan filiali faollaridan biri G‘ofur Qosimov taqdiriga oid ma’lumotlar yaqin davrlargacha “mahfiy” tamg‘asi bilan saqlangan arxiv hujjatlari asosida yoritiladi.

## MATERIAL VA USULLAR

Maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi qarorlari va farmonlari ijrosini ta’minlashga doir konsepsiya metodologik asos bo‘ldi. R.Shamsutdinovning “O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari” [2], Sirojiddin Ahmadning “Qizil mustamlaka: e’lon qilinmagan urush. Katta qirg‘in qomusi (1929–1950)” [3] hamda A.Razzoqovning “O‘zbekistonda paxtachilik tarixi: (o‘tmish va hozir)” [4] nomli fundamental asarlari hamda mavzuga doir boshqa ilmiy maqola va risolalari tahlil qilindi. Materiallar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi fondlarida saqlanayotgan P-24915-sonli Qosimov G‘ofurning ayblov ishiga oid hujjatlarni o‘rganish orqali aniqlandi va ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Muammoni tadqiq etishda tarixiylik prinsipiga tayangan holda, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Qosimov G‘ofur 1894-yili O‘sh shahrida dehqon oilasida tug‘ilgan, 1897-yili oila doimiy yashash uchun Namangan shahriga ko‘chib kelgan. U avval musulmon maktabida o‘qigan, 12 yoshidan yangi usuldagi o‘zbek maktabida o‘qiydi. Farg‘ona shahrida 6 oylik qisqartirilgan pedagogik kursda o‘qigan va 1918-yili Namangan shahridagi pedagogik kurslarda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi, 1919–1921-yillari Namangan shahar xalq maorifi mudiri bo‘lib xizmat qiladi, 1921-yildan partiya a’zosi, 1921-yili Namangan uyezd-shahar militsiya boshlig‘i, uyezd-shahar partiya komiteti mas’ul kotibi, 1924-yildan 1925-yilgacha Namangan uyezd-shahar “Qo‘shchi” soyuzining raisi, 1926–1927-yillari Shahrixonsoy kanali qurilish tresti rahbari, 1928–1929-yillarda Moskvada Oliy partiya maktabi huzuridagi Oliy kolxozlar institutida tahsil oladi.

1929–1930-yillari Namangan rayon paxta soyuzi raisi, 1930–1931-yillari Andijon okrug kolxoz seksiyasi raisi, 1931–1932-yillari Namangan rayon kolxoz soyuzining raisi, 1932–1934-yillari Toshkentda O‘zbekiston ipakchilik trestining direktori bo‘lib ishlaydi. 1921-yilda Turkfront inqilobiy harbiy kengashida ishlaganida “Jangovor Qizil bayroq” ordeni bilan taqdirlangan. “Bosmachilik”ka qarshi kurashdagi ishtiroki uchun 1923-yil oktabrida SSSR Markaziy ijroiya komiteti prezidiumi qaroriga ko‘ra SSSR Markaziy ijroiya komitetining yorlig‘i bilan taqdirlangan. 1929-yilda VKP(b) Markaziy komiteti O‘rta Osiyo byurosi tomonidan mahbus qo‘rboshilarni ozod qilishga doir fikr bildirgani uchun hayfsan ham olgan [2].

Sovet hukumatidan O‘zbekiston mustaqilligini talab qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan “Milliy qo‘mita” tashkilotining Qo‘qon filialiga G‘ofurjon Qosimovlar rahbarlik qilgani [5] haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, u badiiy ijod bilan shug‘ullangani, 1935-yilda “Yozi va Zebo” sahna asarini yozgani ma’lum [3].

*Shahrixonsoy qurilishi trestida rahbarlik faoliyati.* Ma’lumki, 1922-yil bahordagi suv toshqini oqibatida Qoradaryodagi Kampirravot suv taqsimlovchi tizimining ishdan chiqishi natijasida Andijonsoy va Shahrixonsoy kanallariga suv kelishi to‘xtab qolgan edi [4. B. 104]. Respublikada sug‘orish tizimlarini tartibga solish, yangi kanallar qurish muammolari 1923-yil 6-martda Toshkentda bo‘lib o‘tgan irrigatorlarning jumhuriyat kengashida ko‘rib chiqildi. Kengashda faqat buzib tashlangan inshootlarni ishga solishgina emas, bu borada ilmiy tadqiqot va loyihalash ishlarini olib borish, malakali mutaxassislar tayyorlash, suv borasida qonun ishlab chiqish masalalari ham keng muhokama qilindi. Mazkur kengashda 1926–1927-yillarda Shahrixonsoy kanali qurilishi loyihalashtirildi. Qurilish trestini boshqarish G‘ofur Qosimovga topshirildi [6]. Tez orada Farg‘ona oblasti Baliqchi rayonida sug‘orish ishlari tiklandi, Shahrixonda suv taqsimlovchi tarmoq ishga tushdi, suvni tartibga keltiruvchi 25 ta inshoot qurildi, loyiha doirasida Norin daryosidan suv ichadigan Yangiariq kanali qayta ta’mirlandi.

*Agrar sohadagi faoliyati.* G‘.Qosimov 1924-yildan 1925-yilgacha Namangan uyezd-shahar “Qo‘shchi” soyuzining raisi bo‘lib ishlaydi [7]. Shu yillarda 300 ming dehqon qishloq xo‘jaligi xarakteriga ega bo‘lgan kooperativlar va shirkatlarga a’zo bo‘ldilar. 1923-yili faqat Farg‘ona viloyati bo‘yicha 58 foiz paxta maydoniga chigit shu shirkat va kooperativlar yordamida ekildi. Oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak hamda keng iste’mol mollari ham aholiga imtiyozli narxlarda sotila boshlandi. 1923-yildan boshlab paxta yetishtirishdan olinadigan qishloq xo‘jaligi solig‘i bekor qilindi. Aslida markaz tomonidan berilayotgan imtiyozlar arzimas pul hisobiga sodda, oddiy o‘zbek paxtakorining qaramligini oshirib, o‘lkada paxta yakkahokimligi kundan kunga chuqurroq ildiz otishiga olib kelayotgan edi. Mehnat va Mudofaa kengashining 1923-yil 4-avgustidagi qaroriga binoan 10 million pud paxta xomashyosini, 3 million pud tolani markazga olib ketish belgilandi [4. B. 107]. Paxta maydonining ko‘payishi don va boshqa oziq-ovqat ekinlarining kamayishiga olib keldi. Natijada o‘lkada ocharchilik, qimmatchilik yuzaga kela boshladi. Masalan, 1923-yilda Farg‘ona vodiysida haqiqiy qimmatchilik, ocharchilik yuz berdi. Ocharchilikni bartaraf qilish chora-tadbirlarini belgilashda G‘ofur Qosimov qardosh Ozarbayjon respublikasining “paxtani to‘liq ravishda Bosh paxta qo‘mitasiga emas, turli Xalq komissarliklari bo‘yicha tarqatish tashabbusi [4. B. 95]”ga xayrixohlik bildirdi. Keyinchalik esa Kavkazorti Federativ respublikalari o‘z paxtasini chetga – valyutaga sotish imkoniga ega bo‘lgani [4. B. 96] uni tashvishga soldi. Shu o‘rinda “Nima uchun Turkiston o‘lkasidagi Paxta qo‘mitasi o‘z hududiy mustaqilligi uchun kurashmadi, paxta yetishtirish, sotish bo‘yicha o‘z mustaqilligini ta’minlamadi?” degan savollarga u Turkiston Paxta qo‘mitasida ishlayotgan xodimlarning aksariyati yevropaliklar (qo‘mita raisi – I.M.Biryushev, uning o‘rinbosari N.K.Krishtal, qo‘mita a’zolari – F.A.Dyujev, M.N.Nikolskiy, Issakulov [4. B. 97]) bo‘lgani bois, paxtani sotish faqat Bosh paxta qo‘mitasi ixtiyorida qoldirildi, degan o‘yda bo‘lgan. Shu bois paxtachilik sohasi bo‘yicha mahalliy kadrlarni tayyorlash tashabbusi bilan chiqdi va o‘zi ham 1928–1929-yillarda Moskvada Oliy partiya maktabi huzuridagi Oliy kolxozlar institutida tahsil olib qaytdi [8].

1929–1930-yillari Namangan rayon paxta soyuzining raisi, 1930–1931-yillari Andijon okrug kolxoz seksiyasi raisi, 1932-yilda To‘raqo‘rg‘on rayon kolxoz soyuzining raisi bo‘lib ishlagan vaqtida G‘ofur Qosimov paxta yakkahokimligi respublikada turli salbiy oqibatlarga olib kelishini oldindan ko‘ra bilgan holda, respublikada ipakchilik sanoatini rivojlantirish tashabbusi bilan chiqdi. 1932-yil oxirida o‘sha vaqtda respublika rahbari Akmal Ikromov shaxsan o‘zi G‘ofur Qosimovni Toshkentga chaqiradi va “O‘zbekipak” trestining direktori qilib tayinlaydi [9]. Bevosita uning sa’y-harakatlari bilan Farg‘ona shahridagi birinchi 56 qozonli pillakash fabrikasi faoliyati kengaytirildi. 1927–1932-yillar davomida Samarqand, Buxoro va Marg‘ilon shaharlarida pillakashlik fabrikalari qurildi. 1932-yildan boshlab ularda to‘la smenada ish tashkil etishga erishildi. 1926-yildan boshlangan ipak toladan shoyi to‘qish tarmog‘i kengaydi. Marg‘ilon atlas, Namangan abrli gazlamalar, Marg‘ilon shoyi, Samarqand shoyi, Qo‘qon shoyi to‘qish fabrikalarida 1937-yilga qadar shoyi gazlamalar tabiiy ipakdan tayyorlanar edi. Fabrikalarda mahalliy xomashyo asosida ipak matolar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, mahsulotlar xorijga ham sotildi[10].

Paxta yetishtirishga qaraganda kam xarajat va kam mehnat talab qiladigan ipakchilik sohasidagi bu yutuqlar markazning paxta yakkahokimligini o‘rnatish siyosatiga zid deb baholandi.

*Tergov jarayoni va ayblov xulosasi*. Qosimov G‘ofur 1937-yil 5-avgustda 707-raqamli order bilan aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi sifatida ayblanib, Toshkent shahri Mayakovskiy ko‘chasi 7-uyda hibsga olingan [11].

G‘ofur Qosimov 1937-yil 22- va 23-avgust kunlari tergov qilinadi [12]. Tergovda uni Namanganda avval “Nashri Maorif” tashkilotiga, keyin esa “Milliy Ittihod” yashirin tashkilotining Namangan filialidagi faoliyati haqida so‘raladi. G‘ofur Qosimov unga qo‘yilgan barcha ayblovlarni inkor etadi. “Ayb”larni tan oldirishda har qanday jirkanchlikka tayyor bo‘lgan NKVD xodimlari uni yaqindan bilgan, birga ishlagan shaxslarni tergovga tortadi.

1937-yil 13-sentabr kuni Toshmuhammadov Abdulla, 17-sentyabrda Mo‘minov Muhammad tergov qilinadi va ular 1920-yilda Namangan shahri Tatarskiy ko‘chasidagi uylarning birida “Nashri maorif” tashkilotiga a’zolikka qabul marosimlari o‘tkazilgani, Nizamboyev Inog‘omjon targ‘iboti bilan G‘ofur Qosimov ham tashkilotga a’zo bo‘lgani haqida ko‘rsatma beradi. Dadaboyev Bo‘taboy 1937-yil 15- va 16-sentabr kunlari o‘tkazilgan tergovda G‘.Qosimovni yaqindan bilishi, u 1918-yildan aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lgani, hatto Qo‘qon muxtoriyatini tashkil etilishda faol ishtirok etgani haqida ko‘rsatma bergan [13].

1937-yil 17-oktabr kuni Rahmanov Toji, 20-sentabr kuni Jo‘rayev Axundada, Islamov Rustam Islomovichlar, 21-sentabrda Shermuhammadov Pirmuslim tergov qilinadi [14]. Barchasi G‘ofur Qosimov partiya va sovet hokimiyati tizimida mas’ul lavozimlarda faoliyat olib borganligi, Akmal Ikramov bilan yaqin aloqada bo‘lganligi, uning topshiriqlarini o‘z vaqtida so‘zsiz bajarib kelganligi haqida ko‘rsatmalar bergan.

Tergov jarayonida mahbus gumondor shaxslar bilan yuzlashtirilmagan, ularning “ko‘rsatma”lari qanchalik haqiqat yoki NKVD xodimlari tomonidan atayin to‘qib chiqarilganini bilmagan G‘ofur Qosimov qiynoqlar, azoblar ortidan “ayblar”ni tan olishga majbur qilingan.

Xavfsizlik xizmati katta leytenanti Miroshnichenko, 4-bo‘lim boshlig‘i Agabekov, 4-bo‘lim yordamchisi Matveyevlar uni ayblash uchun quyidagicha xulosaga keladi:

“G‘ofur Qosimov 1937-yil 5-avgustda qamoqqa olingan, u 1922-yilda tashkilot markazi rahbari Abdulla Karimov topshirig‘i bilan “Milliy Ittihod” filialiga asos soladi. Filial a’zolari To‘raqo‘rg‘on va Chustda xonadonlarda o‘tkaziladigan “GAP” mehmondorchilikka to‘planib, yashirin yig‘ilishlar tashkil qilgan. Aholi o‘rtasida sovet hukumatini ag‘darish, uning o‘rniga islomiy davlat tuzishni, shariat va qozilik sudlarini tiklashni, ayollarning “ozod”likka chiqishiga qarshi, ularning jamiyatdagi ishtirokini cheklashga doir targ‘ibotlar olib borgan hamda bosmachilarga yordam qilishda faol ishtirok etgan. 1927-yildan aksilinqilobiy o‘ng og‘machilar trotskiychi guruhiga kirgan, milliy masalaga doir antisovet harakatlarda faol bo‘lgan va boshqalarni bu guruhga kirishga targ‘ib qilib kelgan. 1932-yildan O‘zbekiston ipakchilik trestining direktori sifatida Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov va Shermuhammadovlar ta’sirida ipakchilik sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlarda antisovet targ‘ibotlari olib borgan, ongli ravishda bu soha rivojiga qarshi moddiy zarar keltirib chiqargan, ipakchilik sohasida belgilangan tartib-qoidalarni qo‘pol ravishda buzib kelgan. Hibsga olingunga qadar aksilinqilobiy tashkilot uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazib turgan.

Qosimov G‘ofur Dadaboyev Bo‘taboy, Pirmuhammadov Pirmuslim, Rahmanov Toji, Jo‘rayev Axundada, Islamov Rustam Islomovich, Mo‘minov, Sattarov, Azimov, Shohimardonov, Tursunxo‘jayevlar ko‘rsatmalarini “tan” olgan” [15].

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi va 67-moddasi 1-bandi bo‘yicha quyidagicha *ayblov xulosasi* tayyorlanadi:

a) 1922-yildan “Milliy Ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi sifatida sovet davlatiga qarshi kurashgan, Farg‘ona vodiysi bosmachilariga yaqindan yordam bergan.

b) 1927-yildan boshlab norasmiy trotskiychi o‘ng og‘machilik guruhi a’zosi bo‘lgan va tashkilotga yangi a’zolarni jalb qilish bilan shug‘ullangan.

v) 1932-yildan boshlab ”O‘zbekipak” uyushmasi tresti boshqaruvchisi sifatida ipakchilik sohasini, shuningdek, agrar sohani izdan chiqarish, tang holatga keltirish uchun antisovet targ‘ibotlari olib borgan. Sohaga jiddiy moddiy zarar yetkazgan.

Ayblov xulosasiga ko‘ra NKVD uchligi tomonidan 1937-yil 1-dekabrida Oliy sud harbiy kollegiyasiga yuborilgan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktabr yig‘ilishi soat 12:15 da boshlanib, soat 12:35 da tugagan. Qosimov G‘ofur otuvga hukm etilgan, hukm o‘sha kuni ijro qilingan [16].

*Oilasi va farzandlari haqida.* G‘ofur Qosimov davlat va jamoat ishlarida faol bo‘lgani bilan birga oilaparvar inson, farzandlarining g‘amxo‘r otasi ham bo‘lgan. O‘z dastxati bilan 1937-yil 6-avgustda to‘ldirgan mahbus anketasida oilasi haqida quyidagilarni yozgan: ahli ayoli Zuhro 33 yoshda, uy bekasi, qizlari – Habiba 15 yoshda, Shavkatoy 13 yoshda, Robiya 11 yoshda, Osiyo 7 yoshda, Nodira 4 yoshda, o‘g‘illari – Hamid 9 yosh, Hamdam 2 yoshda bo‘lgan [12]. Tabiiyki, u qamoqqa olingan kundan boshlab oila barcha haq-huquqlardan mahrum qilindi, “xalq dushmanining oilasi yoki farzandi” tamg‘asi ostida uzoq yillar ta’qib ostida bo‘ldi. Farzandlari otasining taqdirini bilish uchun yuqori organlarga murojaat qilishdan o‘zlarini tiydilar. Chunki ularni ham qatag‘on o‘z domiga tortishi aniq edi.

1953-yilda I.V.Stalinning vafoti sovet jamiyatidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. 1956-yil 14–25-fevral kunlari Moskvada Kommunistik partiyaning XX syezdidan keyin Stalinning ommaviy qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan shaxslarni oqlash (reabilitatsiya) jarayoni boshlandi. Ko‘plab boshqa qatag‘on qurbonlari qatori G‘ofur Qosimov ham 1957-yil 1-avgustda Oliy sud harbiy hay’ati tomonidan oqlandi [17].

1957-yil 19-noyabrda Namangan shahri 1-proyezd Toshkent ko‘chasi 33-uyda yashovchi, G‘ofur Qosimovning qizi Qosimova Shavkatoy O‘zbekiston SSR Milliy xavfsizlik xizmati boshlig‘i nomiga ariza yuborgan. Sh.Qosimova otasining ko‘p yillar sovet hukumati uchun sidqidildan mehnat qilgani, xalq xo‘jaligining ko‘plab tarmoqlarini rivojlantirishga hissa qo‘shgani haqida yozib, otasi aksilinqilobchi bo‘lmaganini ta’kidlagan, uning oqlanganligi to‘g‘risida ma’lumot berishni va G‘ofur Qosimovni partiya safiga qayta tiklashni iltimos qilgan. Ariza so‘ngida hibsga olish jarayonida o‘tkazilgan tintuv vaqtida olib ketilgan buyumlar va hujjatlarni qaytarishlarini hamda otasining shaxsiy avtomobilini uning vorislariga qaytarishni so‘ragan [18].

Biroq ariza javobsiz qolgan.

1989-yil 23-iyunida Namangan shahri G‘ofur Qosimov ko‘chasi 33-uyda yashovchi Qosimov Hamid G‘ofurovich Namangan oblast prokurori U.J.Jurayev nomiga quyidagi tushuntirish xatini yozadi:

“1928-yilda tug‘ilganman, Otam G‘ofur Qosimov “O‘zbekipak” tresti direktori bo‘lgan. 1937-yil yozida Toshkentdagi Moyakovskiy ko‘chasi 7-uyda yashaganmiz. Opam Shavkatoy 1924-yilda tug‘ilgan, 1979-yilda vafot etgan. Opam Robiya Qosimova 1926-yilda tug‘ilgan, pensioner, hozirda Namangan shahri 3-kichik daha 49-uy 12-xonadonda yashaydi, singlim Qosimova Osiyo 1930-yilda tug‘ilgan. Toshkent davlat madaniyat instituti kafedra mudiri, fan doktori, professor, Toshkent shahri Chilonzor rayon 1-kvartal 59-uy 10-xonadonda yashaydi. Singlim Nodira 1933-yilda tug‘ilgan, Namangan oblast SES laboratoriyasi mudiri, Namangan shahri Shors ko‘chasi 1-uyda yashaydi. Otam G‘ofur Qosimov ham 1957-yil 1-avgustda Oliy sud harbiy hay’ati tomonidan oqlandi. Keyinchalik Namangan shahridagi ko‘chalardan biriga nomi berildi. Biroq hanuzgacha otamning hujjatlari, buyumlari va shaxsiy avtomashinasi bizga qaytarilmadi. Men yaxshi eslayman, 1937-yil yozida men Robiya opam bilan Chirchiqdagi “Parkentskiy” pioner lagerida edik. 5-avgust kuni otam G‘ofur Qosimov o‘z shaxsiy mashinasida bizlarni lagerdan uyimizga olib kelgani kechagidek esimda. Sizdan otamga tegishli bo‘lgan avtomashinani biz vorislar qaytarib olishimizda amaliy yordam berishingizni so‘rayman” [19].

Shu o‘rinda bir mulohaza. Arizada Hamid Qosimov negadir opasi Habiba (otasi hibsga olinganda 15 yoshda bo‘lgan) va ukasi Hamdam (2 yoshda bo‘lgan) haqida ma’lumot bermagan. Balki ular qatag‘on yillari vafot etgan bo‘lishi mumkin.

Hamid Qosimov arizasi ham javobsiz qolgan bo‘lsa kerak, hujjatlar ichida ariza ijrosiga doir biror hujjat topilmadi.

Uchinchi murojaat Qosimova Nodira tomonidan 1990-yil 10-yanvarda KPSS MK nazorat komissiyasi raisi, SSSR Ichki ishlar ministri Boris Karlovich Pugo (1937–1991) nomiga yo‘llangan. Arizada otasining shaxsiy mashinasi NKVD xodimlari tomonidan tortib olingani, bir necha bor tegishli organlarga murojaat qilinganiga qaramay mashina hali ham qaytarilmagani bayon qilingan. Xatga javob bergan ichki ishlar ministrligi G‘ofur Qosimovning shax-

siy avtomobili taqdirini aniqlash va uni vorislariga qaytarish masalalarini o‘rganish uchun respublika ishchi guruhi ixtiyoriga yuborilganini ma’lum qilgan [20].

Ariza yuzasidan Nodira Qosimova nomiga yuborilgan bildirishda G‘ofur Qosimov hibsga olingan vaqtida unga tegishli bo‘lgan avtomashina musodara qilingan buyumlar ro‘yxatida bo‘lmagani, NKVD xodimlari tomonidan avtomashinani davlat ixtiyoriga o‘tkazish to‘g‘risida tuzilgan akt mavjud emasligi ma’lum qilindi.

Bu bildirishnoma G‘ofur Qosimov vorislarining avtomashinani qaytarib olish umidini so‘ndira olmadi. 1990-yil 21-oktyabrda Toshkent shahri Ulug‘bek rayon Pecharskiy ko‘chasi 46-uyda yashovchi Osiyo Qosimova respublika milliy xavfsizlik xizmati boshlig‘i nomiga ariza yozib, hali ham otasi G‘.Qosimovga tegishli hujjatlar va shaxsiy avtomobilni vorislarga qaytarish masalasi hal bo‘lmayotganini bayon qilgan [21]. Xavfsizlik bo‘limi boshlig‘i Y.A.Prudnikov imzolagan javob xatida G‘ofur Qosimovga tegishli hujjatlar va avtomashina taqdirini aniqlash bo‘yicha biror natijaga erishilmagani bildirilgan [22].

Osiyo Qosimova 2000-yil 3-mayda respublika davlat xavfsizlik xizmati boshlig‘i nomiga yana takroriy ariza yozib, mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida otasi G‘ofur Qosimov nomi abadiylashtirilganini qayd etib, unga tegishli bo‘lgan avtomashinani vorislariga qaytarib berilishida amaliy yordam so‘ragan [23]. Xatga 2000-yil 10-mayda javob yuborilgan va unda G‘ofur Qosimovning 1957-yil 1-avgustda Oliy sud harbiy hay’ati tomonidan oqlangani to‘g‘risidagi qaror va “Jangovor qizil bayroq” ordeni guvohnomasidan boshqa biror hujjat yoki buyumlar topilmagani ma’lum qilingan [24].

Akademik Naim Karimov ta’kidlaganidek, sovet davlati “Katta terror” yillarida jamiyatning halol va mehnatsevar qismi qamoqlarda chiritilayotgan bir paytda shu muttahamlar (ya’ni NKVDchilar) Vatanga xoinlikda, aksilinqilobchilikda, millatchilikda va hokazolarda ayblangan kishilarning uy-joylarini, mol-mulklarini tortib olib, xususiylashtirdilar va amalda jamiyatni o‘z qonunlari asosida idora qila boshladilar [25].

G‘ofur Qosimovning shaxsiy mashinasi ham shu muttahamlar tomonidan o‘zlashtirib olinganiga shubha yo‘q.

## XULOSA

G‘ofur Qosimov qaysi lavozimda faoliyat olib bormasin, u avvalo xalq manfaati uchun goh oshkor, goh yashirin tarzda kurasha oldi. Sovetlar tomonidan o‘tkazilgan barcha islohotlarda mehnatkash xalq manfaatlariga zid bo‘lgan masalalarni bartaraf etishda milliy kadrlarni qo‘llab-quvvatladi hamda respublikada ipakchilik sohasining taraqqiyoti uchun katta xizmat qildi.

1937–1938-yillardagi “Katta qirg‘in”davrida sovet hokimiyati tomonidan davlatga qarshi hech qanday jinoyat sodir etmagan begunoh insonlar ham asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilib, ommaviy qatag‘on qilindi. Minglab iste’dodli, ma’rifatparvar va millat taraqqiyoti uchun fidokorona xizmat qilgan farzandlarimiz qatag‘on qurboniga aylandi. Bu mudhish siyosat orqali xalqimizning milliy o‘zligi, millatparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi yuksak insoniy fazilatlarini so‘ndirishga, uning tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlariga putur yetkazishga urinishlar bo‘ldi.

G‘.Qosimovning ayanchli, ayni paytda jasorat va matonatga yo‘g‘rilgan hayot yo‘lini o‘rganish nafaqat o‘tmishdagi tarixiy adolatsizliklarni anglash, balki undan tegishli saboq chiqarish imkonini ham beradi. Uning hayoti va faoliyati misolida milliy g‘urur, Vatanga sadoqat va e’tiqodga sobitlik kabi fazilatlarning qadrini chuqurroq anglash, mustaqillikning naqadar ulug‘ ne’mat ekanini his etish hamda uni asrab-avaylash mas’uliyatini yanada teran anglash mumkin.

## Izoh va sharhlar:

*Agabekov Leon Andreyevich* 1903 yilda Ashxobod shahrida tug‘ilgan. 1929–1938-yillarda O‘zbekiston NKVDsining 4-bo‘lim boshlig‘i, hujjatlarni qalbakilashtirishda ayblanib, 1939-yil 21-yanvarda NKVD tashkiloti tomonidan qamoqqa olingan. 1945-yilda ozodlikka chiqib, partiya safiga tiklangan. Keyingi taqdiri noma’lum.

*Dadaboyev Bo‘taboy* 1887 yilda Chustda tug‘ilgan, taniqli davlat va jamoat arbobi. 1923-yil 14-apreldan Turkiston respublikasi adliya vaziri va respublika prokurori, Turkiston respublikasi MIK prezidiumi va SSSR MIQ a’zosi bo‘lgan. 1924-yil 1-dekabrdan yangi tashkil topgan Tojikiston Kompartiyasi tashkiliy byurosiga a’zo va Tojikiston respublikasi inqilobiy qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari bo‘lgan. 1938-yil 5-oktabrida Toshkentda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor yopiq sudi B.Dadaboyevni oliy jazoga hukm qiladi. Hukm 4-oktabrdayoq ijro etilgan.

*Ikromov Akmal Ikromovich* (1898–1938) – davlat va siyosat arbobi, Toshkentning O‘qchi mahallasida maktabdor Ikrom domla oilasida 1898-yil

14-noyabrda tug‘ilgan. Dastlab jadidchilik harakatida qatnashib, Elxon taxallusi bilan she’rlar yozgan. “Izchilar to‘dasi” va “Chig‘atoy gurungi” tashkilotlarining a’zosi. Turkiston ASSRda sovet hokimiyati qaror topgach, Farg‘ona va Sirdaryo oblastlari partiya tashkilotlarida turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan (1919–1921). Moskvada Sverdlov nomidagi Kommunistik universitetda o‘qigan (1922–1924). O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti kotibi (1925–1929), birinchi kotibi (1929-yil dekabr –1937 yil sentabr) bo‘lgan. 1937-yil 20-sentabrda A.Ikromov Toshkentda qamoqqa olingan. Moskva shahrida 1938-yil 15-mart kuni otib tashlandi. 1957-yil 3-iyunda oqlangan.

*Karimov Abdulla* 1896-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, 1911-yili Qo‘qonda yangi usuldagi o‘zbek maktabini, 1915-yili rus-tuzem maktabini, 1918-yil Skobelov shahridagi pedagogik kursni, 1926-yili Moskvada Sovet Kommunistik universitetni bitirgan. 1920-yildan partiya a’zosi. 1919–1921-yillarda Qo‘qon uyezd-shahar kasaba uyushmasi byurosi a’zosi, sotsial ta’minot mudiri, 1921-yili Farg‘ona oblasti kasaba uyushmasi raisi, 1921-yili Qo‘qon uyezd-shahar revolyutsion komiteti raisi, 1922–1923-yillarda Farg‘ona oblast militsiya boshlig‘i, Farg‘ona qo‘shinlar guruhi harbiy revolyutsion kengash boshlig‘i, 1923–1924-yillarda TASSR maorif xalq komissari o‘rinbosari, 1924-yili Qo‘qonda Farg‘ona oblast partiya komiteti sekretari, 1924–1926-yillarda Moskvada Y.M.Sverdlov nomidagi Kommunistik universitet talabasi, 1926–1927-yillarda Farg‘ona oblast partiya komiteti sekretari, 1927–1929-yillarda O‘zKompartiya Markaziy komiteti Markaziy Kontrol komissiyasi raisi, 1929-yili O‘rta Osiyo iqtisodiy kengashi raisi, O‘zSSR Maorif xalq komissari o‘rinbosari, O‘zSSR Xalq Komissarlar soveti raisi o‘rinbosari bo‘lib xizmat qildi. 1937-yil iyulidan O‘zSSR Xalq komissarlar soveti raisi bo‘lib ishladi. 1937-yil 5-sentabrda qamoqqa olingan va 1938-yil 27-aprelda otib tashlangan.

*Miroshnichenko Sergey Ivanovich* 1907-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1930–1936-yillarda O‘zbekiston NKVD tezkor vakili, 1937-yil sentabridan O‘zbekitson NKVD 3-bo‘lim boshlig‘i yordamchisi, 1937–1939-yillarda O‘zbekiston NKVD 4-bo‘lim boshlig‘i vazifasini vaqtincha bajaruvchi bo‘lgan. 1939-yilda hujjatlarni soxtalashtirishda ayblanib, ishdan chetlashtirilgan. Keyingi taqdiri noma’lum.

*Muhammad Hojibobo Rizayev* 1889-yili Namangan shahrida tug‘ilgan, o‘zbek, sobiq savdogar, inqilobdan so‘ng xizmatchi, partiyasiz, 1919-yildan 1923-yilgacha RKP(b) a’zosi, 1920-yil sentabrida Bokudagi Sharq xalqlari syezdiga vakil bo‘lib borgan, syezddan qaytgach musulmon armiyasini tashkil etish, mustahkamlash, ularni bosmachi deb baholashni to‘xtatish uchun sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borgan.

*Muhitdin Shohimardonov* 1895-yilda Saudiya Arabistonining Madina shahrida tavallud topgan. Keyinchalik uning oilasi Namanganga ko‘chib kelgan. Rus, arab tillarini mukammal egallagani bois avval tilmochlik qilgan, 1919–1933- yillarda partiya a’zosi, 1928 –1930-yillarda rayon xalq sudyasi bo‘lgan, keyinchalik Baliqchi rayonida agronomlik qilgan, keyin Toshkent Ot parvarishlash zavodi direktori bo‘lgan. NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 25-avgust kuni Toshkent shahri Oktyabrskiy rayoni Ozod kvartali 2-uyda yashayotganida hibsga olingan. NKVDchilar tomonidan 1937-yil 21-dekabrda otib tashlangan. (O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi 24627-ish 89-varaq)

*Mo‘minov Muhammad* 1903-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan, Muhammadjon Mo‘minov 1924–1928-yillar Moskva davlat universitetining huquqshunoslik fakultetida o‘qigan. 1929-yilda Samarqandga kelib, O‘zbekiston Oliy sudi kollegiyasi a’zosi bo‘lgan. 1931-yildan O‘zSSR Yustitsiya xalq komissarligida bo‘lim mudiri, 1932–1935-yillarda “Sotsialistik qurilish va huquq” ilmiy tekshirish instituti direktori bo‘lgan. Ilk o‘zbek huquqshunos olimi Muhammadjon Mo‘minov 1937-yil 20-dekabrda qamoqqa olinib, 1938-yil 4 oktabrda otib tashlangan.

*Nizamboyev Inog‘omjon* 1891-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan, partiya va sovet idoralarida mas’ul lavozimlarda ishlagan, qamoqqa olingunga qadar Namangandagi zaxira ombori mudiri, Ot parvarishlash zavodi direktori bo‘lgan. 1937-yil 21-noyabrdagi NKVD uchligi qarori bilan otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 28-dekabrda ijro etilgan.

*Nuriddin Xolmirzayevich Qoriyev* 1893-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan, 1918- yildan partiya a’zosi, 1919-yilda Namangan shahri Sardoba dahasi militsiya boshlig‘i, 1920-yildan Yangiqo‘rg‘on tuman militsiya boshlig‘i, 1924-yilda Namangan viloyati ijroiya qo‘mitasi raisi, 1925-yil 1-fevralda O‘zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo‘mitasi (O‘zSSR MIK) prezidiumi a’zosi va mas’ul kotibi etib saylangan. 1927-yil 1-yanvardan 1929-yilgacha Tojikiston SSR sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari bo‘lgan. 1929-yilda Kommunistik universitetda tahsil olayotganida aksilinqilobiy faoliyati uchun 5 yilga konslagerga hukm qilingan, Surgundan qaytgach, 1937-yilgacha Ashxobod davlat bankida iqtisodchi bo‘lib ishlagan. U 1937-yil 16-sentabr kuni hibsga olingan, 1938-yil 8-yanvarda otib tashlangan.

*Y.A.Prudnikov* – 1993–1999-yillarda O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati bo‘lim boshlig‘i bo‘lgan.

*Rustam Islomov* 1899-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston SSR Yer ishlari komissari bo‘lgan. Tarixiy hujjatlardan birida u “bu yerda Moskva emas, biz xo‘jayin” degan vaj bilan Markaz talabini rad etgani uchun unga “burjua millatchisi” degan ayb qo‘yilgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda 1938-yil 4-oktabrdagi sayyor sessiyasida otuvga hukm qilingan.

*Salimxon Rizayev (Hoji Bobo Rizayev)* – “Milliy ittihod” tashkiloti Namangan shahar bo‘limining rahbarlaridan biri. 1931-yilda o‘n yilga surgun qilingan. Keyingi taqdiri noma’lum.

*Toji Rahmonov* – 1882-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Mulla qori, diniy bilim yurti rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Namangan uyezd-shahar partiya qo‘mitasida vaqf bo‘limi mudiri lavozimida ishlagan. Qamoqqa olinishidan oldin Himoyachilar kollegiyasi a’zosi bo‘lgan. “Jamiyati islomiya”, “Nashri maorif”, “Milliy Ittihod” aksilinqilobiy tashkilotlari a’zosi hisoblangan. NKVD uchligining 1937-yil 29-avgustdagi hukmi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Keyingi taqdiri noma’lum.

*Toshmuxammedov Abdulla* 1889-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1919-yildan VKP(b) a’zosi, 1933–1934-yillarda Frunze tumani partiya komitetining sekretari, 1935-yildan 1937-yil may oyigacha O‘zbekiston KP(b) Markaziy qo‘mitasi instruktori bo‘lgan. 1938-yilning 4-oktabrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida oliy jazo – otuvga hukm qilingan. 1956-yil 12-dekabrda oqlangan.

*Tursunxo‘jayev Muhitdin* 1900-yilda Toshkentda tug‘ilgan, 1920-yili Moskvada Y.M.Sverdlov nomidagi Kommunistik universitetni tamomlagan. Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligida ishlagan, Buxoro respublikasi Ichki ishlar xodimi, O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissari o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktabrdagi yig‘ilishida Muhitdin Tursunxo‘jayev otuvga hukm qilingan, hukm o‘sha kunning o‘zida ijro etilgan. M.Tursunxo‘jayev keyinchalik oqlangan.

*Tursunxo‘jayev Sa’dullaxo‘ja* (1891–1938) – taniqli davlat va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktabrdagi yig‘ilishida Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev otuvga hukm etilgan. Keyinchalik u oqlangan.

*Fayzulla Ubaydullaxo‘jayevich Xo‘jayev* (1896–1938) – taniqli davlat va siyosat arbobi. 1896-yil 1-iyulda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Avval Buxoro madrasasida 2 yil tahsil olgach, 1907–1912-yillarda Moskvada xususiy maktabda o‘qigan. Buxoroga qaytgach (1912), Yosh buxoroliklar partiyasi safiga kirdi. 1917-yildan boshlab u va Fitrat Yosh buxoroliklar partiyasining so‘l qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so‘ngra demokratik respublika tashkil qilish uchun kurashgan. Buxoroda amirlik tuzumi ag‘darib tashlanib, BXSR hukumati tuzilgach (1920-yil sentabr), Fayzulla Xo‘jayev BXSR Xalq Nozirlar sho‘rosi raisi (1920–1924) lavozimidan tashqari BXSR Tashqi ishlar xalq noziri (1920–1922), Harbiy ishlar xalq noziri (1921–1924), Ichki ishlar xalq noziri (1922), BXSR Mehnat va Mudofaa kengashi raisi (1923–1924) kabi mas’ul lavozimlarda ishladi. Shuningdek, Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi raisi (1923–1924), SSSR Harbiy–dengiz ishlari xalq komissarining O‘zbekiston SSR bo‘yicha rasmiy vakili (1924), RKP(b) MK Turkiston byurosi a’zosi (1921–1922), VKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi a’zosi (1922–1934). O‘zbekiston SSR Xalq komissarlari soveti raisi (1925–1937), SSSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasi Prezidiumi raislaridan biri (1925–1937). Fayzulla Xo‘jayev 1937-yil 9-iyulda Moskvaning “Natsional” mehmonxonasida qamoqqa olingan. Moskva atrofidagi Butovo qatlgohida 1938-yil 15-martda otib yuborilgan. 1965-yil 6-martda oqlangan.

*Shermuhammadov Pirmuslim* 1900-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Rus-tuzem maktabini, o‘qituvchilar tayyorlash kursini tugatgan. 1918-yilda Toshkent eski shahar statistika bo‘limi mudiri, 1919–1929-yillarda targ‘ibotchi bo‘lgan, 1921–1923-yillarda Moskvada sharq xalqlari kommunistik universitetida o‘qigan. 1924–1925-yillarda Samarqand oblast partiya qo‘mitasi kotibi, 1926–1927-yillarda Qo‘qon shahar markaziy kengashi kotibi, 1936–1937-yillarda O‘zbekiston partiya Markaziy komitetining qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan. 1937-yil 7-sentabrda qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi hukmi bilan 1938-yil 27-aprelda Moskvada otib tashlangan.

*Shog‘ofur Shomansurov* 1888-yilda Chust shahrida tug‘ilgan. Namangan uyezd shahar inqilobiy qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, 1928–1929-yillarda Andijon okrug ijroiya qo‘mitasi raisi bo‘lgan. 1930-yildan Chirchiq suv tarmoqlari boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlagan. 1937-yil 16-avgust kuni Toshkent shahri Sovetskiy ko‘chasi 17-uyda yashayotganida qamoqqa olingan. 1937-yil 21-noyabrdagi NKVD uchligi qarori bilan 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan va Rossiyaning Komi viloyati Uglig konslageriga yuborilgan. U 1943-yil 2-iyulda Yaroslavl viloyat sudi qarori bilan muddatidan oldin ozod qilinib, Toshkentga oilasi bag‘riga qaytadi. 1943-yil 17-noyabrda og‘ir xastalik tufayli vafot etadi.

*Qirg‘izov Turg‘unpo‘lat Isaboyevich* 1898-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan. 1927–1928-yillarda

Moskva shahridagi harbiy akademiyada o‘qigan. O‘zbekiston tarixida dastlabki milliy harbiy qismlarni tashkil etish, o‘zbek milliy harbiy kadrlarining yangi avlodini yetishtirish uchun, O‘zbekistonda harbiy ish taraqqiyoti uchun katta xizmat qilgan. SSSR Oliy sudining Toshkent shahridagi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktabrdagi xulosasi bilan otuvga hukm qilingan. 1958-yil 15-sentabrda oqlandi.

## Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi “2025–2026-yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 691-son qarori //Xalq so‘zi, 2025-yil 5-noyabr.

2. *Шамсутдинов Р*. Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари. – Тошкент: Sharq, 2012 . – 432 б.

3. *Сирожиддин Аҳмад*. Қизил мустамлака: эълон қилинмаган уруш. Катта қирғин қомуси (1929–1950). – Тошкент: Info capital group, 2022. – 640 б.

4. *Раззоқов А.* Ўзбекистонда пахтачилик тарихи (Ўтмиш ва ҳозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 304 б.

5. *Шамсутдинов Р., Маҳкамов А., Акбарова Н.* Ўрта Осиёдаги жадидчилик ҳаракати қурбонлари тарихидан. Иккинчи китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2025. – 336 б.

6. Ўзбекистон Республикаси давлат хавфсизлик хизмати архиви (кейинги ўринларда – ЎзР ДХХА) П-22939-иш, 8-варақ.

7. ЎзР ДХХА, 22939-иш, 11-варақ.

8. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 5-варақ.

9. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 6-варақ.

10. *Ubaydullayev O‘.* Og‘ir izlar // “Jadid” gazetasi. – 2026-yil 10-aprel. – 15-son.

11. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 11-варақ.

12. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 20-21-варақлар.

13. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 23-24-варақлар.

14. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 28-30-варақлар

15. ЎзР ДХХА, П-22447-иш (Бўтабой Дадабоевнинг айблов иши). 121-варақ.

16. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 218-варақ

17. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 8-варақ

18. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 221-варақ

19. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 223-варақ

20. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 228-варақ

21. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 230-231-варақлар

22. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 234-235-варақлар

23. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 238-варақ

24. ЎзР ДХХА, П-24915-иш, 254-варақ

25. *Каримов Н*. 1937–1938 йиллардаги “Катта қирғин”нинг фожиали оқибатлари. – Тошкент, 2015. – 148 б.

# ON THE ACTIVITIES OF G‘AFUR QASIMOV, A VICTIM OF THE “GREAT TERROR”

**U.K. Ubaydullaev[1]**

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies.* 2026. 5(97). 42-51.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Key words**: struggle, “National Unity”, “National Union”, Gafur Kasimov, Bolshevik Party, colonialism, “prisoner”, “investigator”, repression.

The article is described the life, work and fate of Gafur Kasimov, an active member of the Namangan branch of the “National Unity” organization, a progressive, and his courage in defending national interests during his work as the head of public education in Namangan city in 1919-1921, the chief of the Namangan district-city police in 1921-1924, the chairman of the Namangan district-city “Koshchi” union in 1924-1925, the head of the Shakhrikhansoy Canal Construction Trust in 1926-1927, the chairman of the Namangan district cotton union in 1929-1930, the chairman of the Andijan district collective farm section in 1930-1931, the chairman of the Namangan district collective farm union in 1931-1932, and the director of the Uzbek Silk Trust in Tashkent in 1932-1934.

It is revealed on the basis of sources that Gafur Kasimov, foreseeing that the cotton monopoly would lead to various negative consequences in the republic, was the initiator of the development of the silk industry in the republic, and that during his time as director of the “Uzbekipak” trust, silk fabrics were also sold abroad. It is revealed on the basis of archival documents that Gafur Kasimov was arrested on August 5, 1937 under the label of “counter-revolutionary”, and was shot on October 4, 1938 by the traveling session of the Military Collegium of the Supreme Court of the USSR.

It is also revealed for the first time that Gafur Kasimov’s tragic fate was kept secret from his family for a long time, his property was confiscated and not returned to his family, and his relatives wrote applications to various organizations.

By reassessing Soviet-era investigative materials through a critical historiographical lens, the study contributes to a deeper understanding of the mechanisms of political repression and the suppression of indigenous intellectual elites in Central Asia. The findings highlight the necessity of re-evaluating repressive narratives and restoring historical justice to Jadid figures whose contributions were marginalized or distorted by totalitarian discourse.

## References:

1. (2025). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi “2025–2026-yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 691-son qarori [Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No 691 dated November 4, 2025 ‘On approval of the Program of measures to further intensify work on promoting the lives and activities of victims of repression in our country in 2025-2026’]. *Xalq so‘zi*. 5 November.

2. Shamsutdinov, R. (2012). *O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari* [The Soviet Repression Policy in Uzbekistan and Its Consequences]. Tashkent: Sharq.

3. Sirojiddin Ahmad. (2022). Qizil mustamlaka: e’lon qilinmagan urush. Katta qirg‘in qomusi (1929–1950) [Red Colony: The Undeclared War. Encyclopedia of the Great Purge (1929-1950)]. Tashkent: Info Capital Books.

4. Razzoqov, A. (1994). *O‘zbekistonda paxtachilik tarixi* (O‘tmish va hozir) [The History of Cotton Growing in Uzbekistan (Past and Present)]. Tashkent: Uzbekistan.

5. Shamsutdinov, R., Mahkamov, A., Akbarova, N. (2025). O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakati qurbonlari tarixidan (Ikkinchi kitob) [From the History of the Victims of the Jadid Movement in Central Asia (Book Two)]. Tashkent: Akademnashr.

6. Archive of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan (hereinafter – ARSSS RU). Case P-22939, sheet 8.
7. ARSSS RU. Case 22939, sheet 11.
8. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 5.
9. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 6.
10. Ubaydullayev O‘. Og‘ir izlar [Heavy Traces]. Newspaper *Jadid*, Issue No. 15, April 10, 2026.
11. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 11.
12. ARSSS RU. Case P-24915, sheets 20–21.
13. ARSSS RU. Case P-24915, sheets 23–24.
14. ARSSS RU. Case P-24915, sheets 28–30.
15. ARSSS RU. Case P-22447 (Criminal case of Botaboy Dadaboev), sheet 121.
16. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 218.
17. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 8.
18. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 221.
19. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 223.
20. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 228.
21. ARSSS RU. Case P-24915, sheets 230-231.
22. ARSSS RU. Case P-24915, sheets 234-235.
23. ARSSS RU. Case P-24915, sheet 238.
24. RSSS RU. Case P-24915, sheet 254.
25. Karimov, N. (2015). 1937–1938-yillardagi “katta qirg‘in”ning fojiali oqibatlari [The Tragic Consequences of the “Great Purge” of 1937-1938]. Tashkent.

*Muallif haqida ma’lumot:*
**UBAYDULLAYEV O‘ktamjon Qodirovich** – tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: uktamjon1969@gmail.com